



**Qo'qon DPI**

**ILMIY  
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

Vol.08 № 2/2026


**Qo‘qon DPI.  
Ilmiy xabarlar**



**Кокандский ГПИ.  
Научный вестник**

**№2/2026**

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> Qo'qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva <b>Mas'ul muharrirlar:</b> Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.Y.Pulatov <b>Mas'ul muharrir yordamchisi:</b> Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Bazarov <b>Nashr uchun mas'ul:</b>A.Ergashev</p>
<p><b>MUASSIS:</b> Qo'qon davlat universiteti</p> <p>Qo'qon DPI. <b>ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ.</b> Jurnal bir yilda o'n ikki marta chop etiladi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.</p> <p><b>"Qo'qon DPLIlmiy xabarlar"</b> ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro'yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san'atshunoslikfan tarmoqlari bo'yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.</p> <p>Tahririyat manzili: 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2026</p>	<p><b>TABIIY FANLAR</b></p> <p>И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) V.U.Xo'jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) M.T.Isog'aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'ZB) A.Ж.Хусанов-физика-математика fanlari nomzodi, доцент (O'ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) G'.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.Numonov, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB)</p> <p><b>FILOLOGIYA FANLAR</b></p> <p>Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) G.Israilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'ZB)</p> <p><b>IJTIMOIIY FANLAR</b></p> <p>Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB)</p> <p><b>PEDAGOGIKA FANLAR</b></p> <p>Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB)</p>



## TURK VA O‘ZBEK ANTROPONIMLARINING KELAJAK ISTIQBOLLARI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*DSc., dots. Sharipov R.X.*

*magistrant Shohsanam Tojiyeva*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va turk tillaridagi kishi ismlari bilan bog‘liq hodisalar, antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari, yangi tendensiyalar va ularning sabablari tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar.** tendensiya, globalizatsiya, trend, ommaviy madaniyat, ism.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются явления, связанные с именами людей в узбекском и турецком языках, лингвокультурные особенности антропонимов, новые тенденции и их причины.

**Ключевые слова.** тенденция, глобализация, тренд, популярная культура, имя.

**Annotation.** In this article, the phenomena associated with the names of people in Uzbek and Turkish, the linguistic features of anthroponyms, new trends and their causes are drawn into the analysis.

**Key words.** trend, globalization, trend, popular culture, name.

**Kirish.** Ism — bu xalq ijodi, uning istak va orzularining ifodachisi. Ism minglab oilalar davrasida tanlanadi, baholanadi va bolaga qo‘yiladi. Shunday ekan, hamma kishilarni bir tipdagi, bir xil nomlar bilan atash miqdoran ko‘payib ketishi mumkin. Bunday hol antroponimik tizimning funksional tabiatiga ziddir. Shunday ekan, bolaga berilayotgan ismning qanday bo‘lishi kerakligini bitta mezon orqali o‘lchash tartibini saqlashga intilish kutilgan natijani bermaydi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, bolaga qo‘yiladigan ismni faqat bitta mezon — “chiroylilik” mezoni bilan o‘lchash unga mos tushadigan bir guruh ismlarning keng udum bo‘lishiga, bir xil ism bilan nomlangan shaxslarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bolalarni Muhammad, Yusuf, Usmon yoki Safina, Safinur, Dildora, Anora, Muslima, Omina kabi nomlash bir sinfda bir necha Muhammad ismli o‘g‘il bolalarning yoki Safina ismli qizlarning nomlanishiga olib kelmoqda. Bu ushbu ism egalarini o‘zaro farqlashda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Chunki bolaga ism berishdan maqsad shaxslarni nom berish orqali o‘zaro farqlash, ajratishni ko‘zda tutadi, ularni birlashtirishni emas. Demak, bolaga berilayotgan ismga faqatgina “chiroylilik”, “go‘zallik” nuqtai nazaridan emas, “moslik”, “munosiblik”, “an’anaviylik” nuqtai nazaridan ham yondashish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yana bir masalaga to‘xtab o‘tish lozim bo‘ladi. O‘tmish ajdodlarimiz juda qadimdan amal qilib kelgan qoidaga ko‘ra bir avlodga mansub qarindoshlarning hayot bo‘lgan bolalariga bir xil ism berilmagan.

Bunga ikkita sabab e‘tiborga olingan. Avvalo, bir avlod farzandlari orasida bir xil otdosh (adash)lar bo‘lsa, ularni farqlash qiyin bo‘ladi deb xisoblashgan.

Keyingi sabab, hayot bo‘lgan qarindosh ismini boshqa bir qarindoshiga qo‘yish mumkin emas, degan udumga amal qilingan. Afsuski, hozirda mana shu ko‘hna udumga amal qilmaslik hollari uchramoqda. Buni bir avlod farzandlari —buvi nabiralar, ammovachchalar, xolavachchalar, tog‘a va jiyanlar farzandlari orasida adash bolalar uchrashi tasdiqlaydi. Ism qo‘yish udumlarimiz ismlarning kelajak rivojiga qanday ta‘sir qiladi, kelajakda ismlar sohasida qanday uzgarishlar yuz berishi mumkin degan fikrlar ko‘pchilikni qiziqтира kerak. Bu masalada biror faraz qilish oson ish emas. Ammo o‘zbek antroponimlari rivojidadagi ba‘zi bir tendentsiyalari, aholining bolaga ism berish odatlaridagi ko‘zga tashlanuvchi o‘zgarishni kuzatish orqali ba‘zi ilmiy farazlar qilish mumkin. Ular quyidagilar:

Birinchidan, hozirgi o‘zbek antroponimiyasi leksikasining asosiy qismini qadimdan udum bo‘lib kelgan ismlar tashkil qiladi. Mana shu ismlar majmui bundan keyin ham iste‘molda bo‘lishi kutiladi. Ayniqsa, qishloq joylardagi aholining ismlarini mana shu an‘naviy nomlar tashkil qiladi. Ushbu ismlar fondiga kirib kelgan ba‘zi yangi ismlar bu fondni tamoman o‘zgartira olmaydi.

Ikkinchidan, ism berishda amal qilinadigan bir qator rasm-rusumlar, e‘tiqodlar va shunga mos ravishda ism tanlash hali ancha vaqtgacha saqlanib qolsa kerak, chunki Mahmud Koshg‘ariy aytganidek:

*El (shahar) tashlanur,*

*Rasmiy (urf-odat) tashlanmas.*

Uchinchidan, bolaga utmishda hukmron tabaqalarning mansab va unvonlaridan yasalgan ismlar (Mirzo, Sulton, Poshsha, Malik, Xonzoda va b.) yoki tarkibida mana shunday so‘zlar kelgan nomlarni berish kamayib boradi.

To‘rtinchidan, islom diniga bo‘lgan e‘tiqodning o‘zbek xalqi ma‘naviyatining tarkibiy qismi deb tan olingani, diniy udumlarga amal qilishning kuchaygani diniy tushuncha va tasavvurlarning nomi bo‘lgan so‘zlardan yasalgan ismlarning uzoq davr yashashiga yo‘l ochadi.

Beshinchidan, bolaga berilayotgan ism ma‘nosidan tashqari shaklan sodda, ixcham bo‘lishiga e‘tibor qilish an‘nasi yanada kuchayadi. Ismning shaklan soddalashuvi, uning talaffuzi qulay, yengil bo‘lishini ta‘minlashi aniq. Shu munosabat bilan ba‘zi qo‘shma ismlarning biror komponentini tushirib aytish, qisqartirish jarayoni yanada faollashuvi kutiladi. Masalan, Muhammadali emas Ali, Gulzoda emas — Guli, Zebiniso emas — Zebi va boshkalar.

Oltinchidan, bolaga beriladigan ismni milliylik nuqtai nazaridan ham baholashga intilish kuchayishi mumkin. Shu munosabat bilan o‘zbek ismlari jamg‘armasida asli turkiy ismlar miqdori orta boradi, deb o‘ylaymiz. Hozirda ham ba‘zi mana shu kabi ismlarni qo‘yishga intilish sezilmoqda. Masalan, Mohlaroyim, Gulchiroy, Kumush, Nodirabegim kabi ismlar ko‘payib bormoqda.

Yettinchidan, xalq estetik didining oshib borishi, bolaga chiroyli ism berishga intilish quyidagi tip ismlarning miqdori ko‘payishiga, funksional jihatdan faollashuviga asosiy sabab

bo‘ladi: Aliya, Dafna, Nurgul, Nihan, Emir, Kemal, O‘zan, Galip, Safina, Yasmina, Sofia.

Sakkizinchidan, milliy o‘zlikni anglashga intilish, u bilan borliq o‘zbek milliy qadriyatlarini o‘rganish, qayta kashf qilish, xalqimizning tarixiy bitiklari folklor, badiiy merosidagi qaxramonlarning ismini bolaga qo‘yish udumining ortishiga yo‘l ochadi deb o‘ylaymiz.

To‘qqizinchidan, shunday ismlar ham borki, ism uchun asos bo‘lgan so‘z iste‘moldan chiqqan bo‘lsa-da, so‘z ism sifatida yashab turibdi va kishilar bunday nomlarni ism (kishi nomi) sifatida qabul qiladilar va o‘z farzandlariga qo‘yaveradilar. Bu udum mana shu tip nomlarning tilda hali ham ancha vaqt yashab turishiga kafolat bo‘la oladi. Kaniza, Toshboy, Joriya, Qalqonboy, Darvesh, Qalandar, va boshkalar.

O‘ninchidan, mustaqillik davrida fuqarolarga o‘z ismlari, familiyalarini erkin tanlash huquqi berilgani o‘zbekcha familiya va ota ismlarning ruscha shaklda yozilishida xilma-xillik keltirib chiqardi. Hozirda ba‘zi fuqarolar ruscha -ov, -ova, -eva, -ovna, -evna qo‘shimchalari yordamida yasaladigan familiyalardan voz kechishmoqda hamda ism va otasining yoki bobosining ismini hech bir qo‘shimchalarsiz yonma-yon keltirish asosida yozmoqdalar: Mirza Karim yoki familiyani “o‘g‘li”, “qizi”, “zoda” so‘zlari yordamida hosil qilishmoqda. Jumladan, Abdurahmon Rustam o‘g‘li, Shohsanam Abdumo‘min qizi kabi. Ammo ushbu shakl nom bobo ismidan yasalganida familiya ma‘nosida, ota ismidan yasalganda otasim shaklini hosil qilmoqda. Har holda o‘zbeklarning familiya va ota ismlarida xilma-xillik, chalkashlik mavjudligini tan olmay iloj yo‘q. Kelajakda bu masalada biror usulni qabul qilish va fuqarolarning familiya va ota ismlarini ma‘qul bo‘lgan muayyan tizimga keltirish muhim vazifalardan biridir. Matbuotda bu masalada ba‘zi fikrlar uchrab turibdi<sup>68</sup>. Masalan, kishilarni, ularning familiyalaridan qaysi millatga mansubligini bilib olsa bo‘ladi. Men istardimki, bizlarni yuqoridagilar kabi qayerdanligimiz aytilmay turiboq katta-katta jahon anjumanlarida, seminarlarda, jahon musobaqalarida ism familiyalarimizning shaklidan O‘zbekistondan ekanligimizni darhol tanishsa, bilishsa. Bunday holatni xalqimiz juda iliqlik bilan qarshi olishi aniq. Bu holat milliy o‘zligimizni tanishda, dunyoga yanada kengroq tanilishimizda bir vosita ham bo‘la oladi. Aytilganlar, shubxasiz, dolzarb va yaxshi fikr, ammo o‘zbekcha familiya qanday shaklda bo‘lishi lozimligi haqida biror aniq taklif yo‘q. Hozirgi o‘zbeklarning familiya va ota ismlari sho‘rolar davrida rasmiylashtirilgan nomlar va hozirda ruscha shakldagi familiyalarni ihtiyor qilayotgan fuqarolarning ruscha shakldagi familiya va ota ismlari hisobiga milliy shakllardan ustunlik qilib turibdi. O‘n birinchidan, ma‘lumki, shahar aholisi bilan qishloq aholisi orasida ismlarni baholash, bolaga qanday ismni tanlash borasida ba‘zi farqlar sezilib turadi. Keyingi paytlarda bu farq ma‘lum darajada qisqarib bormoqda, shaharlik va qishloq bolalarining ismlari orasidagi o‘ziga xosliklar kamayib, mushtaraklik ortmoqda. Shunga qaramasdan, fikr yuritilayotgan masala yuzasidan farqlar hali ham ma‘lum davrgacha saqlanib tursa kerak. Unga sabab qishloq aholisi orasida ism berish bilan aloqador qadimiy an‘anaviy udumlar kuchlidir.

<sup>68</sup> Begmatov.E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent, 2014. – B. 172.

Har bir xalqning milliy qadriyatlari, madaniyati va tarixiy xotirasi antroponimlarda – inson ism-shariflarida o‘z aksini topadi. Ismlar nafaqat aloqa vositasi, balki ma’naviy merosning muhim bir qismi hisoblanadi. Turk va o‘zbek xalqlarining tarixiy-ijtimoiy aloqalari, umumiy ildizlarga ega bo‘lgan tillari va madaniyati ularning antroponimikasida ham o‘z ifodasini topgan.

Turk va o‘zbek antroponimikasining tarixiy ildizlari. Turkiy xalqlarda, xususan, turklar va o‘zbeklarda ismlar ko‘p hollarda ma’noga ega bo‘lib, kishining fazilati, orzusi yoki o‘sha davrdagi ijtimoiy-madaniy muhitni ifodalaydi. Masalan, o‘zbeklarda “Bahodir”, “Shavkat”, “Gulbahor” kabi ismlar bilan turklardagi “Alp”, “Deniz”, “Ayşe” kabi ismlar ma’no jihatidan o‘zaro yaqin.

Zamonaviy tendentsiyalar. Bugungi kunda ismlarga bo‘lgan munosabatda ayrim o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Turkistonda arabcha yoki diniy ismlar bilan bir qatorda inglizcha, turkcha va boshqa xorijiy ismlar ham keng tarqalmoqda. Bu holat media, internet, xorijiy madaniyatning ta’siri bilan bog‘liq. Turkiyada esa o‘z milliy ismlarni zamonaviy shaklda berish tendensiyasi kuchaymoqda, masalan, “Eymen”, “Zeynep” kabi ismlar ommalashmoqda.

Antroponimikaning ijtimoiy-psixologik va siyosiy aspektlari. Ism tanlash jarayoniga otionalarning ijtimoiy mavqei, diniy qarashlari, madaniy didi, hattoki siyosiy qarashlari ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ba’zi oilalar tarixiy shaxslar yoki milliy qahramonlar ismlarini tanlasa, boshqalar zamonaviy va xorijiy nomlarga moyil bo‘ladi. Shu bilan birga, ism-shariflarni davlat tomonidan rasmiy tartibda nazorat qilish, ayrim ismlarga ruxsat berish yoki cheklash amaliyotlari ham mavjud.

Kelajak istiqbollari. Kelajakda turk va o‘zbek antroponimikasida quyidagi yo‘nalishlar rivojlanishi kutilmoqda. Globallashuv ta’siri kuchayadi, xalqaro nomlar va yangi fonetik shakllar ko‘proq qo‘llanilishi mumkin. Sun’iy intellekt va texnologiya omili. Ismlarning qisqaligi, talaffuzdagi soddaligi va xotirada saqlanish qulayligi ustuvor bo‘ladi.

Madaniy renessans. Milliy qadriyat va tarixiy ismlarga qaytish kuchayadi, ayniqsa yosh avlod orasida o‘z ildizlariga bo‘lgan qiziqish ortadi. Nomlar bazasi va elektron tizimlar. Ism-shariflar avtomatik ravishda tizimlashtiriladi, yangi tug‘ilgan bolalarga nom berishda elektron maslahat xizmatlari rivojlanadi.

Turk va o‘zbek antroponimlari o‘z xalqining ruhiyati, qadriyatlari va tarixini aks ettiruvchi boy manba bo‘lib qolmoqda. Kelajakda bu sohada ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va milliy o‘zlikni saqlash bilan bog‘liq yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Antroponimika faqat tilshunoslik emas, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning ham ko‘zgusidir.

Globallashuv va madaniy integratsiyaning turk va o‘zbek ismlar tizimiga ta’siri ham hozirgi kunda ancha yuqori darajada. So‘nggi o‘n yilliklarda globalizatsiya jarayoni dunyoning turli hududlarini bir-biriga yaqinlashtirib, madaniyatlararo integratsiyani kuchaytirdi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy tizimlarga, balki milliy va madaniy qadriyatlarga, jumladan, ismlar tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Turk va o‘zbek xalqlari umumiy etnik ildizlarga ega bo‘lishiga qaramay, har birining ismlar tizimi o‘ziga xos tarixiy va madaniy

asoslarga ega. Biroq, global axborot maydonining kengayishi, xalqaro migratsiya, ommaviy madaniyat (kino, estrada, internet) orqali bu tizimda sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Globallashuv va madaniy integratsiya jarayonlari. Globallashuv – bu dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning jadallashuvi, chegaralarning nisbiy ochiqligi, texnologik taraqqiyot tufayli axborot almashinuvi tezlashuvi jarayonidir. Madaniy integratsiya esa, madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va uyg‘unlashuvni bildiradi. Bu jarayonlar orqali ko‘plab xalqlar o‘z urf-odatlariga yangi elementlarni qabul qilmoqda. Ayniqsa, ismlar tanlovida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Ism tizimlaridagi tarixiy va an’anaviy xususiyatlar. Turk va o‘zbek ismlari tarixan boy ma’naviy merosga ega. O‘zbek ismlari ko‘pincha arab, fors, turkiy ildizli bo‘lib, diniy-ma’naviy mazmunga ega. Sobir, Abduvohid, Nilufar, Dilorom, Shamsiddin kabi. Turk ismlari esa asosan turkiy ildizli bo‘lib, tabiat, hayvonot olami yoki tarixiy shaxslar bilan bog‘liq. Masalan, Alparslan, Asli, Deniz, Bariş kabi.

O‘zbek oilalarida farzanda ismlarni bobosi yoki buvisining nomini qo‘yish an’anasi kuchli saqlangan. Turklarda esa zamonaviy, poetik yoki kuchli ma’no anglatadigan ismlar keng tarqalgan. Bu ikki tizimda milliy o‘zlik, tarix va qadriyatlar aks etadi.

Globallashuvning zamonaviy ism tanloviga ta’siri. Globallashuv natijasida, ayniqsa shahar aholisi orasida xorijiy ismlarga qiziqish ortmoqda. Turkiyada inglizcha yoki g‘arbona talaffuzdagi ismlar (masalan, Elif, Mert, Alina) keng tarqalayotgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ham bu holat kuzatilmoqda, Amir, Ariana, Kamila, Jeniya kabi ismlar ommalashmoqda.

Bunga sabab sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Kino va seriallar orqali mashhur bo‘lgan qahramonlarning ismlari.

Estrada va sport yulduzlariga taqlid.

Internet madaniyati va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi.

Migratsiya tufayli chet elga ko‘chib ketgan oilalarning yangi madaniy muhitga moslashuvi. Bunday jarayonlar natijasida ba’zi an’anaviy ismlar unutilib bormoqda yoki zamonaviy shaklga o‘zgarimoqda (masalan, Jo‘rabek – Jordan, Gulchehra – Guli va h.k.).

Madaniy integratsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari. Madaniy integratsiya jarayoni ikki tomonlama ta’sirga ega. Bir tomondan, u millatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni oshirib, madaniy boyish imkonini beradi. Turli xalqlarning ismlar tizimidan o‘zga elementlarni qabul qilish orqali yangi uslublar va kombinatsiyalar paydo bo‘ladi. Boshqa tomondan esa, bu jarayon milliy identitet zaiflashuviga olib kelishi mumkin. O‘zlikni anglatuvchi an’anaviy ismlarning yo‘qolishi, milliy qadriyatlarning susayishiga sabab bo‘ladi. Ismlar orqali xalqning mentaliteti, qadriyatlari va tarixiy xotirasi saqlanib qoladi.

Globallashuv va madaniy integratsiya sharoitida ismlar tizimining o‘zgarishi tabiiy jarayon. Ammo, bu o‘zgarish milliy xotirani boyitishga emas, balki uni yo‘qotishga xizmat qilmasligi zarur. Shu bois, ota-onalar farzandlarga ism qo‘yishda milliy, diniy va tarixiy omillarni hisobga olishi kerak. Ismlar merosini asrash va targ‘ib qilish bo‘yicha ilmiy-lug‘aviy asarlar yaratish zarur. Ommaviy axborot vositalarida milliy ismlarning go‘zalligi va ma’nolari

haqida ko‘rsatuvlar tayyorlanishi kerak. Maktab dasturlarida milliy ismshunoslik asoslarini kiritish foydalidir. Shunda globalizatsiya sharoitida ham milliy o‘zlik, tarixiy xotira va madaniy meros saqlanib qoladi.

Turk va o‘zbek xalqlarida kelajakda nomlash an‘analarining saqlanishi va o‘zgarishi. Ism – bu shaxsiyatning ilk belgisi, jamiyat bilan ilk aloqa vositasidir. Har bir xalq o‘z tarixiy, diniy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra bolaga ism tanlaydi. Turk va o‘zbek xalqlarida ism tanlash jarayoni qadimdan boy an‘analar asosida shakllangan bo‘lib, bu an‘analar orqali avlodlar o‘rtasidagi ma‘naviy bog‘liqlik saqlanib kelmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy davrda ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar bu jarayonga yangi tus bermoqda.

Ism tanlashdagi tarixiy va madaniy asoslar quyidagilardan iborat. O‘zbek xalqi orasida ism tanlashda diniy (islomiy), tarixiy shaxslar, tabiat hodisalari, estetik mezonlar va oilaviy an‘analar asosiy o‘rinda bo‘lgan. Masalan, Abdufattoh, Abdug‘ofur, Oqila, Yorqinoy, Dono, Baxtiyor. Ko‘pincha bobolar yoki buvilarning nomlari takroran qo‘yiladi.

Turk xalqlarida ham shunga o‘xshash asoslar mavjud. Ammo zamonaviy Turkiyada poetik, ma‘noli, qulay talaffuzli, ba‘zida g‘arbona tusdagi ismlar (masalan, Elif, Ege, Doruk) ommalashmoqda. Bu, ayniqsa, shahar aholisi va yuqori ijtimoiy qatlamda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Kelajakda ismlar tizimining o‘zgarishiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Globalashuv – G‘arb madaniyati ommaviyligi, chet el filmlari va seriallarining ta‘siri orqali xorijiy ismlar keng tarqalmoqda.

Urbanizatsiya va ijtimoiy stratifikatsiya – Shaharlarda zamonaviy ismlar tanlovi ko‘proq, qishloq joylarda esa an‘anaviy nomlar saqlanmoqda.

Texnologiya va ijtimoiy tarmoqlar – Instagram, TikTok, YouTube orqali mashhur shaxslarning ismlari yoshlarga ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Migratsiya – chet elda yashovchi turk va o‘zbek oilalari farzandlariga xalqaro talaffuzga mos ismlar qo‘yishga moyil.

Shunga qaramay, ayrim ismlar avlodlararo bog‘liqlik timsoli sifatida saqlanmoqda. Masalan, o‘zbeklarda “-bek”, “-xon”, “-niso” qo‘shimchali ismlar, turklarda esa tarixiy shaxslar nomlari (Alparslan, Osman) hali ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

O‘zbeklarda diniy asosli ism qo‘yish odati (Abdulloh, Imron, Zaynab) qishloq joylarda saqlanmoqda. Turklarda esa ma‘noli, kuchli obrazli ismlar (Umut – umid, Bariş – tinchlik) afzallik bilan tanlanmoqda.

Kelajakda nomlash an‘analari quyidagicha rivojlanishi mumkin. An‘anaviy ismlarning zamonaviy talqini. Eski ismlar qisqartirilgan yoki zamonaviy shaklga o‘zgartirilgan holda qayta ommalashadi. Masalan, Shamsiddin → Shams, Gulbahor → Guli. Ikki komponentli yoki kombinatsiyalangan ismlar. Xalqaro va milliy elementlar uyg‘unlashgan ismlar (Elina, Malika, Amirjon) kengayadi. Mavsumiy yoki tematik ismlar. Tug‘ilgan sana yoki voqea bilan bog‘liq nomlar (Navruz, Ramazon, Bahor, Nizom) son jihatdan ko‘payadi. Virtual dunyo ta‘siri. Fantastik film va o‘yinlardagi ismlar (Arya, Leo, Aiden) yosh avlod orasida trendga aylanadi.

Milliy ismlar lug‘ati va elektron bazasini yaratish – yangi tug‘ilgan bolalarga zamonaviy va milliy uyg‘unlikda ismlar tanlashda yordam beradi. Ota-onalarga maslahat tizimini joriy etish – ismlar tarixiy va semantik jihatdan tushuntirib berilsa, ongli tanlov kuchayadi. Madaniyat vazirligi va ilmiy markazlar tomonidan tadqiqotlar davom ettirilishi – bu nomlash madaniyatini yanada chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Oynajahon orqali milliy ismlarni targ‘ib qilish – ismlarning ma‘nosi, tarixi haqida ko‘rsatuvlar va maqolalar tayyorlash foydali bo‘ladi. Nomlash an‘anasi bu – millatning ma‘naviy pasportidir. Uni asrab qolish, lekin zamon bilan uyg‘unlashtirish kelajak avlodlar oldidagi burchdir.

Ismlar tizimining istiqboli — bu jamiyatning madaniy, ijtimoiy va ilmiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq jarayondir. Globalizatsiya sabab ismlar fonetik va estetik jihatdan universallashtirib borayotgan bo‘lsa-da, milliy ildizga, qadimiy turkiy nomlarning ma‘naviy kuchiga qiziqish ham barqaror davom etmoqda. Kelajak avlodning ism madaniyati milliy an‘analar, global tendentsiyalar, psixosemantik yondashuvlar va sun‘iy intellektning aralashuvi natijasida yanada boyib, murakkablashib borishi shubhasiz. Ismlarimiz istiqboli – bu milliy o‘zlikni asrash, zamon bilan hamnafas bo‘lish va ilmiy ongning rivojlanishidan iborat uyg‘un jarayondir.

Bugungi avlod ism qo‘yishda faqat tovush emas, balki ma‘no, ruhiy ta‘sir, vibratsiya kabi omillarga ham e‘tibor qaratayotganligi sabab, kelajakda “baxt”, “nur”, “quvvat” ma‘noli ismlar keng tarqaladi. Masalan, Nuraniya, Arshina, Nurila, Fayoz, Ilhom, Nurlan.

Sun‘iy intellekt ismi tanlash jarayoniga kirib keladi. Yaqin kelajakda ota-onalar AI yordamida ismning kelajakdagi mashhurligi, psixologik ta‘siri, xalqaro moslashuvi, ma‘no qatlamlari na‘tijalariga qarab bola ismini tanlashadi. AI yordamida formula asosida tuzilgan butunlay yangi ismlar paydo bo‘ladi. Elvian, Nurima, Kaylan kabi. Ikkita madaniyat aralash ismlari ko‘payadi. Migratsiya va chet el ta‘limi sabab gibrid ismlar ommalashadi. Masalan, turkcha-arabcha yoki o‘zbekcha-inglizcha uyg‘unlashgan nomlar. Aylin-Maryam, Emir-Joel, Laylo-Sofi, Arshan-Leo kabi aralash shakllar kengayadi.

Gender neytral ismlar ortadi. Butun dunyoda gender bo‘yicha betaraf ismlar ko‘paymoqda. Bu trend bizda ham asta-sekin kirib keladi. Masalan, Ayan, Nur, Samir, Dilshod, Boncuk, E‘zoz kabi ikki jinsga mos ismlar ko‘p ishlatiladi.

Mahalliy tabiat va geografiya nomlari asosida yangi ismlar paydo bo‘lishini ham faraz qilish o‘rinli. Tabiatga qaytish, ekologik ongning ortishi ismlarga ham ta‘sir qiladi. Milano, Osiyo, Mamlakat, Daryo, Bahor, Marvarid kabi obrazli ismlar keng tarqalishi mumkin.

Ismlarimiz istiqboli — milliylik, zamonaviylik va global uyg‘unlik yo‘lidan boradi. Bir tomonda ildizga qaytish, ikkinchi tomonda esa xalqaro maydonga moslashish tendentsiyasi davom etadi. Biz yuqorida o‘zbek ismlari istiqboli xakida fikr yuritdik. Ba‘zi taxminlar, farazlar qildik. To‘g‘ri, ushbu farazlarning ba‘zilariga vaqt o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Ammo ilmda istiqbolga oid taxminlar qilish bor gap, bu ayb xisoblanmaydi.

**Xulosa.** Mavzuni o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga erishildi. Xulosa o‘rnida ta‘kidlash mumkinki, turk va o‘zbek tillarida ismlar milliy madaniyat, tarixiy xotira va xalq

dunyoqarashining bevosita ko‘zgidir. Har bir xalq o‘z farzandiga ism qo‘yishda nafaqat shaxsiy ma‘noni, balki milliy qadriyatlar, diniy e‘tiqod, urf-odat va an‘analarni ham ifoda etadi. Shu bois, ismlarda milliy xususiyatlarning aks etishi jamiyatning madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlari va tarixiy tajribasidan dalolat beradi. Turk va o‘zbek xalqlari tarixida ismlar dastlab tabiat, hayvonot, qushlar, kuch-qudrat, jasorat, go‘zallik kabi tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lgan (masalan, Arslon, Qaplan, Oybarchin). Keyinchalik diniy e‘tiqod ta‘sirida Qur‘oni karim va hadis manbalariga oid arabcha, fors-tojikcha ismlar keng tarqaldi (Muhammad, Ali, Fotima, Laylo). Shu bilan birga, xalq dostonlari va afsonalaridagi qahramonlar ismi ham milliy ongda mustahkam o‘rin egalladi (Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Layli va Majnun). Zamonaviy davrda esa milliy xususiyatlar bilan bir qatorda globalizatsiya ta‘siri ostida xalqaro tusdagi ismlar ham qo‘llanmoqda. Shunga qaramay, milliy ildizga tayanish, ajdodlar ismlarini avloddan avlodga berish, ona tilida ma‘no kasb etadigan ismlarni qo‘llash an‘anasi saqlanib qolmoqda. Demak, ismlarda milliy xususiyatlarning aks etishi xalqning madaniy merosi, tarixiy xotirasi, diniy e‘tiqodi va milliy o‘zligini ifodalovchi asosiy belgidir. Ismlar orqali milliy o‘zlik mustahkamlanadi va avlodlar orasidagi ma‘naviy bog‘liqlik davom ettiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Baxtiyorov, A. (2020). O‘zbek ismlari tarixi va ularning ma‘nosi. Toshkent: Ma‘naviyat nashriyoti.
2. Johnson, P. (2019). *Celebrity Culture and its Impact on Naming Trends*. New York: Social Studies Press.
3. Rahmonov, D. (2023). *Globalizatsiya va milliy o‘ziga xoslikning o‘zaro ta‘siri*. Toshkent: Ilm nashriyoti.
4. Watson, L. (2021). *Pop Culture Phenomena: How Media Shapes Identity and Choices*. London: Culture Press.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi (2024). *Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga qo‘yilgan ismlar statistikasi*. Toshkent.

<b>EXPRESSION OF THE CONCEPT OF TIME THROUGH PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH</b> <i>Ishonkulov Sherzod Usmonovich</i>	937
<b>INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI EKOLOGIK DISKURSIDA NEOLOGIZMLARNING STRUKTURAVIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI</b> <i>Abdullayeva Shaxlo Sayfiyevna</i>	942
<b>FEATURES OF METAPHORICAL EUPHEMIZATION IN MODERN ENGLISH</b> <i>Shakarboyev Mehridin</i>	946
<b>NEMIS TILIDAGI QUR‘ON, INJIL VA IBODAT MATNLARIDA SOTSIODEYKTIK VA TEKSTUAL DEYKTIK BIRLIKLAR: “BRUDER”, “GEMEINDE”, “SIEHE”, “DENN” KABI BIRLIKLARNING MATN ICHIDAGI ROLLARI</b> <i>Abduraxmonova Ra‘no Kosimovna</i>	951
<b>OCHILDIMUROD MIRIY SHE‘RIYATIDA LAFZIY VA MUSHTARAK SAN‘ATLAR</b> <i>Abdullayeva Hurriyat Murodullayevna</i>	960
<b>TURK VA O‘ZBEK ANTROPONIMLARINING KELAJAK ISTIQBOLLARI</b> <i>Sharipov R.X., Shohsanam Tojiyeva</i>	970
<b>“QURILISH SAVDO SOHASIDA QO‘LLANILAYOTGAN XORIJIY TILLARNING O‘ZBEK TILI LINGVISTIKASIDA TUTGAN O‘RNI VA UNING AMALIY TADQIQI”</b> <i>Ozoda Xushvaqtova</i>	978
<b>LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF MARKETING TEXTS</b> <i>Shokhida Baxtiyorjon qizi Rakhmatillayeva</i>	983
<b>REPRESENTATION OF POSTMODERN TEXT IN AMERICAN FICTION</b> <i>Rakhimova Sarvinoz Tolibovna</i>	989
<b>HOW TO BOOST READING COMPREHENSION OF YOUNG LEARNERS THROUGH INTERACTIVE READ-ALOUD STRATEGY</b> <i>Turgunboev Mukhammadbobur Faxriddin o‘g‘li, Kodirova Diyorakhon Zafarjon qizi</i>	995
<b>LEKSIKO-SEMANTIK XUSUSIYATLARI TIBBIY ATAMALARNING AUTENTIK MATNLARDAGI IFODALANISHI VA ULARNI O‘QITISHDA TALQIN QILISH USULLARI</b> <i>Israilova Ilona Xalitovna</i>	1001
<b>SIYARI SHARIFI TURKIY ASARINING ADABIY XUSUSIYATLARI</b> <i>Xamidxonov Axadxon Obidxon o‘g‘li</i>	1012

# **Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar**

## **Кокандский ГПИ. Научный вестник**

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2026-y.

«Poligraf Super Servis» MЧЖ

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: [kspi\\_info@edu.uz](mailto:kspi_info@edu.uz)

**№2/2026**